

ILG‘OR XORIJIY MAMLAKATLAR JINOYAT HUQUQIDA SHAXSGA DOIR MA‘LUMOTLAR HIMOIYASI HAMDA MILLIY JINOYAT QONUNCHILIK BILAN O‘XSHASH VA FARQLI JIHLTLARI

Isroilov Shaxzod Iomiddin o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti”

yo‘nalishi magistratura bosqichi talabasi

E-mail: isroilovshahzod16@gmail.com

ABSTRACT

Mazkur maqolada shaxsga doir ma‘lumotlarni himoya qilishning mexanizmi O‘zbekiston zamonaviy xorij tajribasi o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish bilan o‘rganilgan

Keywords: Shaxsga doir ma‘lumotlar, shaxsiy sir, telefon so‘zlashuv va yozishmalar siri, tergov va sud muhokamasi.

Umumxalq ovozi bilan qabul qilingan Konstitutsiyamizning 31-moddasida har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi mavjudligi hamda har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega ekanligi belgilangan.¹ Har bir shaxsning o‘z shaxsiga doir ma‘lumotlarini himoya qilish huquqi kafolatlangan.

Subyektning shaxsga doir ma‘lumotlariga familiya, sharifi, ismi, tug‘ilgan yili, shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami (JSHSHIR), Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (STIR), yashash manzili, elektron pochta manzili, telefon raqami, oilaviy ahvoli, ish joyi, lavozimi, shuningdek, subyektga tegishli boshqa ma‘lumotlar kiradi.²

Jinoyat qonunchiligida xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish, sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni oshkor qilish bilan qo‘rqitib o‘zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni talab qilish, Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Oliy Majlis Axborotnomasi. (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)

² O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni. (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Jinoyat protsessual kodeksida fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turar joylari daxlsizligi, o'zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali so'zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan qo'riqlanishi, fuqarolarning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida jinoyat ishini yopiq sud majlisida ko'rish mumkinligi nazarda tutilgan.

Xususan, jinoyat protsessual kodeksining 88-moddasida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va boshqalarning shaxsiy hayotiga doir aniqlangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik chora-tadbirlarini ko'rishi shartligi ko'zda tutilgan. himoyachi, guvoh, ekspert, tarjimon kabi odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxslarga o'z vazifalarni bajarish chog'ida ma'lum bo'lgan sirlarni oshkor qilmaslik majburiyati qonun bilan yuklanadi. Kodeksning 353-moddasi jinoyat ishidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini tartibga solgan bo'lib, tergov harakatlarida ishtirok etayotgan yoki tergov harakatlarini bajarishda hozir bo'lgan yoxud tergov materiallari bilan tanishayotgan shaxslarga ularning zimmasiga ishda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini yuklaydi.¹

O'zbekiston Respublikasida "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" qonun qabul qilingan bo'lib, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va himoya qilinganligi, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilayotganda ushbu ma'lumotlarning xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarga qarab, ularning himoya qilinganlik darajasini belgilaydi, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasini ta'minlashga oid bo'lgan, bajarilishi shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish chog'ida ularning belgilangan himoyalanganlik darajasini ta'minlaydigan talablarni davlat tomonidan kafolatlanishini o'rnatadi, subyektning yozma roziligi bilangina uning shaxsigacha doir ma'lumotlarni, uning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi, manzili, abonent raqami, kasbi to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor qilish mumkinligini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik bo'yicha shaxsga doir ma'lumotlar borasidagi munosabatlarni tartibga solish mexanizmi bilan tanishib chiqib, ularni jinoyat huquqi va protsessida amal qilish tartibi mana shulardan iboratligi to'g'risidagi xulosaga kelamiz.

Shaxsga doir ma'lumotlarni jinoyat protsessida himoya qilishda Rossiya tajribasi:

¹ Jinoyat protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 11.05.2023-y., 03/23/841/0270-son)

“Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi Rossiya federatsiyasi qonuning 7-moddasida shaxsiy ma’lumotlarga ega bo’lgan operatorlar va boshqa shaxslar, agar federal qonunlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo’lmasa, shaxsiy ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmasliklari va shaxsiy ma’lumotlarni shaxsiy ma’lumotlar egasining roziligisiz tarqatmasliklari shartligi ko’zda tutilgan.¹

Rossiya federatsiyada sudning ishni mazmunan hal qiluvchi qarorlari internet tarmog’ida e’lon qilinishi belgilangan bo’lib, sud hujjatlari matnlarini joylashtirilayotganda quyidagi shaxsga doir ma’lumotlar - sud muhokamasi ishtirokchilarining familiyalari, ismlari va otasining ismi, tug’ilgan sanasi va joyi, yashash yoki yashash joyi, telefon raqamlari, pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat tafsilotlari, jismoniy shaxslar uchun soliq to’lovchining identifikatsiya raqami, yakka tartibdagi tadbirkorning asosiy davlat ro’yxatga olish raqami, shaxsiy shaxsiy hisobning sug’urta raqami chiqarib, so’ng e’lon qilinishi belgilangan. Istisno qilingan shaxsiy ma’lumotlar o’rniga sud jarayoni ishtirokchilarini aniqlashga imkon bermaydigan bosh harflar, taxalluslar va boshqa belgilar ishlatiladi.² Rossiya federatsiyasida “Sudlar faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlarni olishni ta’minlash to’g’risida” qonun qabul qilingan bo’lib, fuqaro (jismoniy shaxs), tashkilot (yuridik shaxs), jamoat birlashmasi, davlat hokimiyati organi yoki mahalliy o’zini o’zi boshqarish organiga sudlar va odil sudlov faoliyatida ma’lumotlarni olishni cheklangan tarzda kafolatlab, shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor etilishiga yo’l qo’yilmasligini nazarda tutadi.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi ta’kidlaganidek, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va ulardan cheklangan tarzda foydalanishni ta’minlash uchun federal qonunlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo’lsa, davlat hokimiyati va mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlari fuqarolarga davlat xizmatlarini ko’rsatish bilan bog’liq o’z vazifalarini amalga oshirish chog’ida ma’lum bo’lgan axborotlarni, shaxsiy ma’lumotlar sub’ektining roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va shaxsiy ma’lumotlarni tarqatmasligi kerak.³ “Aloqa to’g’risida”gi federal qonunning 53-moddasiga muvofiq, aloqa xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi shartnomani bajarish tufayli aloqa operatorlariga ma’lum bo’lgan ma’lumotlarning sir saqlanishi Rossiya federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq himoya qilinadi. Abonentlar to’g’risidagi ma’lumotlarga abonent-fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki taxallusi, abonent - yuridik shaxsning ismi (firma nomi), ushbu yuridik shaxs rahbari

¹ Федеральный закон от 27.07.2006 N 152-ФЗ (ред. от 06.02.2023) "О персональных данных"

² Федеральный закон от 22.12.2008 N 262-ФЗ (ред. от 14.07.2022) "Об обеспечении доступа к информации о деятельности судов в Российской Федерации" (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.01.2023)

³ Определение Конституционного Суда РФ от 07.07.2016 N 1423-О "Об отказе в принятии к рассмотрению жалобы религиозной организации "Церковь евангельских христиан "Назарет" на нарушение конституционных прав и свобод подпунктом 2 пункта 4 статьи 181.2 Гражданского кодекса Российской Федерации"

va xodimlarining familiyasi, ismi, otasining ismi, shuningdek abonentning manzili yoki terminal uskunalari o'rnatish manzili, abonent raqamlari va ko'rsatilgan aloqa xizmatlari uchun hisob-kitob tizimlarining ma'lumotlar bazalari, shu jumladan abonentning ulanishlari, trafigi va to'lovlari to'g'risidagi axborotlar hamda boshqa ma'lumotlar kiradi. Uchinchi shaxslarga fuqaro abonentlari to'g'risida ma'lumot berish faqat ularning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu qonunning 64-moddasiga binoan aloqa operatorlari tezkor qidiruvni amalga oshiruvchi vakolatli organlarga shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish shartligi majburiyati yuklangan.¹

Rossiya federatsiyasida shaxsiy ma'lumotlar sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini mustaqil ravishda nazorat qilish va nazorat qilish funksiyalarini bajaradigan federal ijro etuvchi organ mavjud bo'lib, shaxsga doir ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanadi.

Fuqaroning yozishmalar, telefon va boshqa muzokaralar, pochta, telegraf va boshqa xabarlar siriga bo'lgan huquqini cheklashga faqat sud qarori asosida yo'l qo'yiladi. Pochta va telegraf jo'natmalarini xatlash va ularni aloqa muassasalarida olib qo'yish, telefon va boshqa muzokaralarni nazorat qilish va yozib olish, abonentlar va (yoki) abonent qurilmalari o'rtaidagi ulanishlar to'g'risida ma'lumot olish faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi mumkin.²

Rossiya jinoyat protsessual qonunchligi bo'yicha tergov ma'lumotlari oshkor etilmaydi. quyidagi ikki holatda ma'lumotlarni oshkor etishga yo'l qo'yiladi.

1.Dastlabki tergov ma'lumotlari faqat tergovchi yoki surishtiruvchining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin va agar oshkor qilish dastlabki tergov manfaatlariga zid kelmasa va jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzish bilan bog'liq bo'lmasa, ular maqbul deb tan oladigan darajada e'lon qilinishi mumkin.

2.Dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilishni ta'qiqlash tatbiq etilmaydigan holatlar:

- davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunni buzish to'g'risida ishlar;

- tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror tomonidan ommaviy axborot vositalarida, "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'ida yoki boshqa ommaviy usulda tarqatilgan ishlar:

- ochiq sud majlisida e'lon qilinganlar holatlar;

Yuqori keltirilgan uch holatda sud to'g'risida ma'lumotlar hamma uchun ochiq bo'ladi.

¹ Постановление Верховного Суда РФ от 04.03.2016 N 307-АД15-18844 по делу N А56-14802/2015

² "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" статья 13. от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 28.04.2023)

Shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar va boshqa jinoyatlar to'g'risidagi jinoiy ishlarni ko'rib chiqish jinoyat protsessi ishtirokchilari hamda yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni oshkor qilish bilan bog'liq ishlar yopiq sud majlisida ko'rib chiqiladi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni jinoyat protsessida himoya qilishda Armaniston Respublikasi tajribasi:

Ma'lumotlar sub'ektining roziligi bilan yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda shaxsiy ma'lumotlarning ommaviy axborot rejimi o'rnatilishi mumkin (telefon ma'lumotnomalari, manzillar kitoblari, biografik ma'lumotnomalar, shaxsiy e'lonlar, daromadlar deklaratsiyasi va boshqalar).

Armaniston tajribasida shaxsga doir ma'lumotlar quyidagi uch xil toifaga tasniflanadi.

Shaxsiy ma'lumotlar sanalgan shaxsning ismi, familiyasi, kuni, oyi va yili, tug'ilgan joyi shaxs vafot etgan joy, kun, oy va yil, hamma uchun ochiq hisoblanadi.

Maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlarga irqiy, milliy yoki etnik kelib chiqishi, siyosiy qarashlari, diniy yoki falsafiy e'tiqodlari, kasbiy ittifoqqa a'zoliigi, sog'lig'i va hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar kiradi. Ularni shaxsning roziligisiz qayta ishlash taqiqlanadi, qonunda bevosita nazarda tutilgan ma'lumotlarni qayta ishlash hollari bundan mustasno.

Biometrik shaxsiy ma'lumotlar - yuzning jismoniy, fiziologik va biologik xususiyatlarini tavsiflovchi ma'lumotlar bo'lib, Biometrik shaxsiy ma'lumotlar faqat ma'lumotlar sub'ektining roziligi bilan qayta ishlanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno va agar qonun bilan belgilangan maqsadni amalga oshirish faqat ushbu biometrik ma'lumotlarni qayta ishlash orqali mumkin bo'lsa.

Operator mazkur Qonunning 15-moddasida belgilangan tartibda ma'lumotlar subyektiga va vakolatli organga ma'lumotlar subyektiga tegishli shaxsiy ma'lumotlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi yoki ularning yozma so'rovi olingandan keyin besh kun ichida ular bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi shart.¹

Vakolatli organlar, shaxsning roziligisiz, uning ma'lumotlarini faqat qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda to'plashi, saqlashi va foydalanishi mumkin bo'lib, agar bu shaxsning shaxsini aniqlash uchun zarur bo'lgan holatlarni aniqlash uchun zarur bo'lsa qo'llanadi. Ish yuritishni olib boruvchi organ shaxsga doir ma'lumotlarni kelajakda ma'lumot egasiga, eriga(xotiniga) yoki yaqin qarindoshiga zarar etkazishni oqilona oldini olishi lozim. Shaxsiy va tibbiy masalalar bilan bog'liq

¹Закон Республики Армения "О защите личных данных". 18.05.2015 ЗР-49-Н

ishlarni yuritish jarayonida (tibbiy yordam, sudga murojaat qilish yoki ma'lumot olish xizmatlari bundan mustasno) notarial, bank yoki tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar qonunda belgilangan tartibda faqat sud qarori bilan to'planishi mumkin. dalillarni olib qo'yish va oddiy boshqa harakatlar sud qarori yoki ushbu shaxsning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Baxtsiz hodisa joyini tekshirish bundan mustasno. har qanday holatda ham shaxsning turar joyini ko'zdan kechirish faqat sud qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.¹

Shaxsga doir ma'lumotlarni jinoyat protsessida himoya qilishda

Latviya Respublikasi tajribasi:

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga faqat qonunda boshqacha tartib belgilanmagan taqdirda ruxsat etilishi, jinoyat huquqiy munosabatlarda shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi Latviya Respublikasi shaxsga doir qonunchiligi va jinoyat protsessual kodekslari bilan belgilangan.²

Jinoyat ishini yurituvchi mansabdor shaxs shaxsning shaxsiy hayoti va tijorat sirini himoya qilishga majburdir. Bu to'g'risidagi ma'lumotlar faqat isbotlanadigan holatlarni aniqlashtirish zarur bo'lganda olinishi va ishlatilishi mumkin. Ushbu qonunning ma'nosida identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlar shaxsning ismi, familiyasi, shaxsiy identifikatsiya raqami, tug'ilgan sanasi va joyidir.³

Shaxsga doir ma'lumotlarni jinoyat protsessida himoya qilishda

Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi:

Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi AQShda ham, Yevropa Ittifoqida ham qonunchilik va sud muhokamalarining mavzusi bo'lib kelgan. Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini qonun bilan himoya qilish jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari, davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari va milliy xavfsizlik xizmatlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirildi. Maxfiylik to'g'risidagi qonunga binoan umumiy qoida shundan iboratki, agentlik yozuvlar tizimidagi yozuvni oshkor qila olmaydi, agar yozuv tegishli bo'lgan shaxs oshkor qilishga oldindan yozma rozilik bermasa. Quyidagi ikki holatda shaxsga doir ma'lumotlar oshkor qilinishiga yo'l qo'yiladi.

1. Boshqa agentlikka yoki Qo'shma Shtatlar ichidagi yoki uning nazorati ostidagi har qanday hukumatga fuqarolik yoki jinoiy huquqni muhofaza qilish faoliyati uchun, agar faoliyat qonun bilan cheklanmagan bo'lsa, va agentlik rahbarining nomiga yuborilgan yozma so'rov asosida ma'lumotning taaluqli bo'lgan kerakli, alohida

¹ ՀԱՅԱՍՏԱՆԻ ՀԱՆՐԱՊԵՏՈՒԹՅԱՆ ՔՐԵԱԿԱՆ ԴԱՏԱՎԱՐՈՒԹՅԱՆ. 2021 թ. հուլիսի 27. Երևան ՀՕ-306-Ն.

² Personal Data Protection Law. The Parliament of the Republic of Latvia 23.03.2000

³ Latvijas Republikas kriminālprocesuālās tiesības A daļa. Vispārīgie noteikumi 01.03.2023

qismini topshirishi lozim. Ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning so'rovlari asosida shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor qilishga yo'l qo'yiladi.

2. Vakolatli yurisdiksiya sudining buyrug'i bilan shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Ya'ni tegishli sudning hujjati asosida ma'lumotlarni qayta ishlovchi organlar, agentliklar, operatorlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor qilishlari lozim.

Amerika qonunchiligida ma'lumotlarning ommaviylashishi instituti mavjud bo'lib, sud jarayoni bo'yicha ma'lumotlarni har qanday shaxsga taqdim etilishini nazarda tutadi. Bunda ma'lumotlarni oshkor qilishdan avval shaxsning xabardor qilish talab etiladi.¹

Huquqni muhofaza qilish organlariga himoyalangan moliyaviy ma'lumotlarga osonroq kirish imkoniyatini berish, moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash maqsadida g'aznachilik tarmog'idan axborotlarni olish uchun tegishli qonunlarga bir necha bor o'zgartirishlar kiritilgan.²

Shaxsga doir ma'lumotlarni jinoyat protsessida himoya qilishda Germaniya tajribasi:

Odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lganda sud, prokuratura, tergov organlari tomonidan shaxsning ma'lumotlaridan foydalanishga ruxsat etiladi. "Ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Federal qonunning 57-moddasiga binoan advokat sudga taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni qonunga binoan olishi mumkin. manfaatdorning shaxsning roziligi olinmagan taqdirda ma'lumotlarni taqdim etish rad etiladi. Advokatning himoyasi ostidagi manfaatlarini himoya qilish uchun zarurligi isbotlansa, ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin.

Tergov va sud hujjatlaridagi shaxsiy ma'lumotlarni universitetlarga, ilmiy tadqiqot olib boradigan boshqa muassasalarga davlat organlariga uzatishga ruxsat etiladi. Bu ma'lumotlar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun qo'llanadi. Manfaatdor shaxs ruxsat bermagan taqdirda ma'lumotlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Shaxsiy ma'lumotlar uzatilgan taqdirda ular faqat aynan shu maqsadda foydalanishi lozim, boshqa maqsadlarda foydalanish uchun tegishli organning roziligi talab etiladi. Tadqiqot maqsadlarida foydalanilayotganda ma'lumotlarni sir saqlanishi himoylangan bo'lishi lozim.

Germani Jinoyat protsessual qonunchiligi bo'yicha shaxsga doir ma'lumotlarni jinoiy ta'qib qilish uchun maxsus organlarga, jinoyat sudlariga, prokuraturaga yuborilishi mumkin. Rasmiy ma'lumotlarning uzatilishi, agar jinoiy ish yuritish maqsadlariga zid bo'lsa, tergov maqsadiga xavf tug'dirsa, ma'lumotlarni oshkor etish

¹ Overview of The Privacy Act of 1974 (2020 Edition) from justice.gov

² Stephen Cobb, CISSP. Data privacy and data protection: US law and legislation. NY.: 2016

rad etiladi. Quyidagi holatlarda shaxsning roziligi olinmasdan shaxsga doir ma'lumotlarni uzatish mumkin.

- vakolatli organ tomonidan xavfni oldini olish maqsadida;

- shaxsning hayoti, sog'ligi, erkinligi, davlatning xavfsizligi maqsadida bunday xavfni bartaraf etish maqsadida kerakli yondashuvlar ushbu ma'lumotlardan aniqlanishi mumkin bo'lsa;

- ish yuritish to'xtatilgan, jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan, ayblanuvchi oqlangan, yoxud sudlanganlik olib tashlangan kundan boshlab ikki yildan ortiq vaqt o'tsa.

Ishdan olingan ma'lumotlar va materiallarni tekshirish nodavlat notijorat tashkilotlariga faqat ma'lumotlarni bilishdan manfaatdorlik ishonchli tarzda isbotlangan taqdirda taqdim etiladi, bunda subyektning roziligini olish talab etiladi.

Politsiya organlari jinoyat protsessi ishtirokchilarining shaxsiy ma'lumotlaridan politsiya qonunlariga muvofiq agar maxsus federal qonun va tegishli shtat qonunlarida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, foydalanishlari mumkin. Prokuratura va sudlar politsiya organlariga ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin.

Sud, jinoyat qidiruv organlari, probatsiya guruhlar, ijro etuvchi organlar, politsiya shaxsiy ma'lumotlarni jinoiy ish yuritish maqsadlari uchun zarur bo'lgan hollarda fayl tizimlarida qayta ishlashlari mumkin.

Umumiy xulosa qilib, jinoyat protsessida shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribalarida va O'zbekiston jinoyat protsessual huquqida tartibga solish mexanizmi anchagina bir biriga yaqin va o'xshash degan to'xtamga keldik. Ularning markazida shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasi turadi, o'xshashlik jihatlariga ish bo'yicha o'zlariga ma'lum bolgan holatlarni jinoyat protsessi ishtirokchilariga oshkor qilmaslik majburiyatini yuklash, jinoyat huquqiy munosabatlar uchun vakolatli davlat organlariga shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish huquqini taqdim etish, telefon so'zlashuv, yozishmalarni sud qarori asosida xatlash kiradi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni jinoyat protsessida himoya qilishda Rossiya qonunchiligi va O'zbekiston qonunchiligi o'rtasida bilan deyarli farqli jihat yo'q. Faqatgina davlat organlari xodimlarining jinoyatlari to'g'risida ishlar va qonunda nazarda tutilgan ba'zi holatlarda sud to'g'risidagi ma'lumotlar hamma uchun oshkor tartibda ko'rilishi unutmazlik kerak.

Qozog'iston qonunchiligi bo'yicha shaxsiy hayot to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek shaxs sir saqlash uchun zarur deb hisoblagan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, ulardan foydalanish va tarqatish ta'qiqlanadi. Noqonuniy ravishda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanilganda shaxsga yetkazilgan zarar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi kerakligi belgilangan. Sud majlisini oshiq va yopiq

majlisda ko‘rish tartibi O‘zbekiston jinoyat protsessual huquqi bilan bir xil. Sud ishtirokchilarning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida shaxsga doir ma‘lumotlarni, ovozi, aksenti va tashqi ko‘rinishiga doir bog‘liq ma‘lumotlarni oshkor qilmasligi mumkin. videoyozuvga ularni ko‘rsatmasdan so‘roq qilishiga yo‘l qo‘yiladi. Sudgacha bo‘lgan dastlabki tergov jarayonida shaxsga doir ma‘lumotlar oshkor etilmaydi. Ammo tergov manfaatlariga zid kelmasa, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlariga buzilishiga olib kelmasa, prokurorning ruxsati bilan ommaga e‘lon qilinishi mumkin. Lekin O‘zbekiston jinoyat huquqida shaxsga doir ma‘lumotlarni ommaga oshkor qilish instituti joriy etilmagan. Umuman olganda Qozog‘iston qonunchiligi bo‘yicha shaxsga doir ma‘lumotlarni himoya qilinishi, ularni oshkor qilishdagi tartib-taomilar O‘zbekiston qonunchiligi bilan o‘xshash ekan.

Germaniy qonunchiligi bo‘yicha tergov va sud protsessiga oid shaxsga doir ma‘lumotlarni ilmiy-tadqiqot maqsadlarida nodavlat notijorat tashkilotlariga, ilmiy ish bilan shug‘ullanuvchi institutlarga topshirilishi mumkinligini farqli jihat deya baholashimiz mumkin. Qolavesa, advokatlarga o‘z himoyasi ostidagi shaxsning manfaatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida shaxsga doir ma‘lumotlardan foydalanishga ruxsat berilganligi, shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarilganligi yoxud oqlanganligi holatlarida sud muhokamasi ishtirokchilarining shaxsiga doir ma‘lumotlar oshkor etilishiga yo‘l qo‘yilishini e‘tirof etish lozim.

Jinoyat protsessi bosqichida Amerika tajribasidan shuni anglash mumkinki, tergov va sud shaxsning roziligi bilan ommaviylashish instituti mavjud bo‘lib, shaxsga doir ma‘lumotlarning barcha uchun ochiqligini ifoda etadi.

Turkiya jinoyat protsessual qonunchiligida esa, Genetik tahlil natijalari maxfiyligi instituti mavjud bo‘lib, boshqa maqsadlarda foydalanishga ruxsat etilmasligi, e‘tiroz berish muddati tugaganda prokuror ishtirokida darhol yo‘q qilinishi belgilangan. Qolaversa, tergov davomida shaxsga doir ma‘lumotlar tergov va tezkor qiduruv maqsadlardan o‘zga maqsadlarda foydalanilmasligi, jinoyatga aloqador bo‘lmagan ma‘lumotlar darhol yo‘q qilinishi belgilangan.¹

Xususan yuqorida tahlil qilganimizdek, Armaniston tajribasida shaxsga doir ma‘lumotlar uch xil toifaga tasniflanishi, birinchi toifa hamma uchun ochiqligi, qolganlari esa faqatgina subyektning roziligi asosidagina oshkor qilish mumkinligini ta‘kidlab o‘tish darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Oliy Majlis Axborotnomasi. (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)

¹ CEZA MUHAKEMESI KANUNU. BİRİNCİ KİTAP Genel Hükümler. 4/12/2004. №5271

2. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni.
3. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, qonun hujjatlari milliy bazasi 11.05.2023-y., 03/23/841/0270-son)
5. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni.
6. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
7. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 11.05.2023-y., 03/23/841/0270-son)
8. Федеральный закон от 27.07.2006 N 152-ФЗ (ред. от 06.02.2023) "О персональных данных"
9. Федеральный закон от 22.12.2008 N 262-ФЗ (ред. от 14.07.2022) "Об обеспечении доступа к информации о деятельности судов в Российской Федерации" (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.01.2023)
10. Определение Конституционного Суда РФ от 07.07.2016 N 1423-О "Об отказе в принятии к рассмотрению жалобы религиозной организации "Церковь евангельских христиан "Назарет" на нарушение конституционных прав и свобод подпунктом 2 пункта 4 статьи 181.2 Гражданского кодекса Российской Федерации"
11. Постановление Верховного Суда РФ от 04.03.2016 N 307-АД15-18844 по делу N А56-14802/2015
12. "Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации" статья 13. от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 28.04.2023)
13. Закон Республики Армения ”О защите личных данных”. 18.05.2015 ЗР-49-Н
14. Personal Data Protection Law. The Parliament of the Republic of Latvia 23.03.2000
15. Latvijas Republikas kriminālprocesuālās tiesības A daļa. Vispārīgie noteikumi 01.03.2023
16. Overview of The Privacy Act of 1974 (2020 Edition) from justice.gov
17. Stephen Cobb, CISSP. Data privacy and data protection: US law and legislation. NY.: 2016
18. CEZA MUHAKEMESİ KANUNU. BİRİNCİ KİTAP Genel Hükümler. 4/12/2004. №5271
19. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016.